

**JINSIY ERKINLIKKA QARSHI JINOYATLARNING KRIMINALOGIK  
TAVSIFI VA NOMUSGA TEGISH JINOYATI**

**Abdiqahhorov Davlatbek Muzaffar o'g'li**

**Karimov Abdulaziz Abdulhamid o'g'li**

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti talabalari

**ANNOTATSIYA**

Jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar deganda jabrlanuvchining ayol (erkak)ning xohish-irodasiga qarshi u bilan jinsiy aloqada bo'lish, jabrlanuvchi bokira qizmi yoki "ko'hna qiz vakilimi bundan qat'i nazar, zo'rlab nomusga tegish hisoblanadi, chunki qonun axloq odobidan qat'i nazar barchaning jinsiy erkinligini himoya qiladi.

**ANNOTATION**

Crimes against sexual freedom are sexual intercourse with a woman (man) against the victim's will, sexual assault, regardless of whether the victim is a virgin or a representative of an old woman, because the law is based on morality. regardlessprotects everyone's sexual freedom.

**АННОТАЦИЯ**

Преступлениями против половой свободы являются половые сношения с женщиной (мужчиной) против воли потерпевшего, насильственные действия сексуального характера, независимо от того, является ли потерпевший девственницей или представительницей старухи, поскольку закон основан на морали, защищает половую свободу каждого независимо от .

**KALIT SO'ZLAR**

## PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION

Jinsiy erkinlik, jinsiy zo'rlik, nomusga tegish, ruhiy ojizlik, jismoniy ojizlik, jabrlanuvchi, subyekt, obyekt, obyektiv tomon, subyektiv tomon, jinoyat tarkibi, g'ayritabiiy usulda, majbur etish

### KEY WORDS

Sexual freedom, sexual violence, indecent assault, mental weakness, physical weakness, victim, subject, object, objective side, subjective side, crime structure, unnatural method, coercion

### КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Половая свобода, сексуальное насилие, развратные действия, психическая слабость, физическая слабость, потерпевший, субъект, объект, объективная сторона, субъективная сторона, состав преступления, противоестественный способ, принуждение

### TAHLIL

Jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar quyidagi 4 moddani o'z ichiga oladi. Bular:

- Nomusga tegish (JK 118-modda)
- Jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish (JK 119-modda)
- Besoqolbozlik (JK 120-modda)
- Ayolni jinsiy aloqa qilishga majbur etish (JK 121-modda)

Nomusga tegish jinoyati Jinoyat kodeksining 118-moddasida belgilangan bo'lib, ushbu jinoyatning bevosita obykti jabrlanuvchining jinsiy erkinligi ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar, o'z hohishiga ko'ra jinsiy sherigini tanlash huquqi, shuningdek, 16 yoshga to'lmagan shaxslarning jinsiy daxlsizligi hisoblanadi. Nomusga tegishning qo'shimcha obykti jabrlanuvchining hayoti va sog'ligi bo'lishi mumkin.

## PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION

Er-xotinlardan birortasi, hatto ular rasmiy nikohda bo'lishsa ham. Nomusga tegish natijasida jabrlanuvchi bo'lishi mumkin, zero, nikoh er xotinni jinsiy erkinlikdan mahrum etmaydi.

Jinoyatning **obyektiv tomoni** zo'rlik ishlatib, qo'rqitib yoki jabrlanuvchining ojizligidan foydalanib jinsiy aloqa qilishda ifodalanadi. Nomusga tegish paytida aybdor qo'llagan zor'lik jismoniy yoki ruhiy bo'lishi mumkin. Odatda zo'rlik ishlatib va qarshilik ko'rsatish bir biri bilan bog'liq bo'ladi, qarshilik kuchaygani sayin zo'rlik ham kuchayib boraveradi. Lekin alohida olingan har bir holatda qarshilik samimiy yoki soxta, mug'ombirlik yoxud qichiq yo'sinda bo'lganligi aniqlanishi lozim. Basharti, jabrlanuvchi samimiy qarshilik ko'rsatmagan bo'lsa aybdorning harakati nomusga tegish tarkibini tahkil etmaydi. Nomusga tegishga suiqasd qilish ham jinoyat deb topiladi. Nomusga tegishga suiqasd qilish deganda, bevosita jinsiy aloqa ta'sir etmaydiqilish maqsadida jismoniy zo'rlik ishlatish, qo'rqitish yoki jabrlanuvchining ojizlik holatidan foydalanishga urinish hamda aybdorga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra jinsiy aloqa boshlanmaganligi tushuniladi.

**Nomusga tegishga tayyorgalik ko'rish** deganda, aybdorning zo'rlik ishlatib nomusga tegish maqsadida maskur harakatlarni amalga oshirish bo'yicha biror shaxs bilan kelishishi, reja tuzishi, zo'rlik ishlatish uchun zarur vositalarni olishi ya'ni arqon yoki kishan orqali, xonani tayyorlashi va boshqa harakatlarni amalga oshishi tushuniladi. Jabrlanuvchining sha'ni, qadr-qimmatini kamsituvchi harakatlar sodir etilgan bo'lsa-yu, ayni vaqtda ayblanuvchining zo'rlik ishlatib jinsiy aloqa qilish niyati bo'lmagan bo'lsa, bunday shaxsning harakati nomusga tegishga suiqasd sifatida emas, shaxsga qarshi qaratilgan jinoyat jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilinishi kerak bo'ladi.

Nomusga tegish jinoyati **subyektiv tomondan to'g'ri qasd** bilan amalga oshiriladi. Aybdor jabrlanuvchiga nisbatan zo'rlik ishlatib, qo'rqitib yoki uning ojizligidan foydalanib, uning xohish irodasiga qarshi nomusiga tegayotganligini

## PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION

anglaydi va buni hohlaydi. Jinoyatni sodir etish motivi va ko'zlangan maqsad kvalifikatsiga ta'sir etmaydi.

Jinoyatning **subyekt** ikki jins vakili bo'lgan taqdirda ham **14 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxs** bo'ladi.

Nomusga tegish jinoyatining o'g'irlashtiruvchi holatlari ham mavjud bo'lib JK ning 118-moddasida 2-qismida belgilangan:

- a) ikki yoki bir necha shaxsga nisbatan;
- b) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan yoxud ilgari Jinoyat kodeksining 119-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan;
- v) bir guruh shaxslar tomonidan;
- g) o'ldirish bilan qo'rqitib sodir etilgan bo'lsa, - **yeti yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish** bilan jazolanadi.

Jinoyat Kodeksining 118-moddasi 3-qismi ham og'irlashtiruvchi holatlar belgilab o'tilgan bo'lib ular:

- a) shaxsning 18 yoshga to'lmaganligi aybdorga ayon bo'lgan holatda;
- b) yaqin qarndoshga nisbatan;
- v) ommaviy tartibsizliklar qatnashchisi tomonidan;
- g) o'ta xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan bo'lsa;
- d) og'ir oqibatlarga olib kelgan bo'lsa, - **o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi** bilan jazolanadi.

Nomusga tegish jinoyatining o'g'irlashtiruvchi holati bo'lgan **bir guruh shaxslar tomonidan** sodir qilish deganda, jinoyatni sodir etishda ikki yoki undan ortiq aqli raso 14 yoshga to'lgan jismoniy shaxslarning ishtirok etishi tushuniladi. Bunda ularning har bir guruhi guruhning boshqa a'zolari bilan kelishib harakat qilganhamda nomusga tegish jinoyati obyektiv tomonining hech bo'lmaganda bitta harakatini sodir etgan bo'lishi lozim. Ishtirokchilar o'rtasida oldindan til biriktirilganligi yoki biriktirilmaganligi ahamiyatga ega emas.

## PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION

**O'ldirish bilan qo'rqitib** nomusga tegish ham o'g'irlashtiruvchi holat sifatida berilgan bo'lib, o'ldirish bilan qo'rqitib deganda, jabrlanuvchini hayotidan mahrum qilish bilan qo'rqitish tushuniladi. Qo'rqitish deganda o'ldiraman osaman degan so'zlar ishlatish bilan sodir etilishi mumkin.

Agar tomonlar o'zi rosi bo'lsayu, ammo 16 yoshga to'lmagan shaxslar bilan jinsiy aloqa qilinsa jinoyat deb topiladi. Chunki Jinoyat Kodeksining 128-moddasiga ko'ra 16 yoshga to'lmagan shaxs bilan ixtiyoriy jinsiy aloqa qilish jinoyat tarkibini beradi va javobgarlik holatini keltirib chiqaradi. Jinsiy zo'ravonlik jinoyati oqibatida kelib chiqqan og'ir oqibatlar inobatga olinishi va ko'rib chiqilishi lozim. Bunda, sababiy bog'lanish o'rganilib, ijtimoiy xavfli qilimish va og'ir oqibat o'rtasidagi **sababiy bog'lanish** bor yoki yo'qligi ko'rib chiqiladi.

Jinoyat Kodeksining 118-moddasi 4-qismida **o'n to'rt yoshga to'lmaganligi aybdor ayon bo'lgan shaxsning** nomusiga tegish og'irlashtiruvchi holat sifatida berilgan bo'lib, jabrlanuvchining 14 yoshga to'lmaganligini aybdorga ayon yopki ayon bo'lish holatlari ko'zda tutiladi. Jabrlanuvchining 14 yoshga to'lmaganligi aybdorga oldindan ma'lum bo'lgan yoki uning xulqi va tashqi ko'rinishiga qarab yoshini bilish lozim bo'lgan hollardagina aybdorning qilmishi Jinoyat Kodeksining 118 moddaso 4-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi
- Jinoyat huquqi Maxsus qism, M.Rustamboyev darsligi;
- Jinoyat huquqi Umumiy qisnm, M.rustamboyev

**PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN  
EDUCATION**